XALQ DEPUTATLARI FARG‘ONA VILOYATI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 29-oktabr VII-14-158-11-0-K/25 Farg‘ona viloyati

Xalq deputatlari viloyat Kengashining 2025-yil 5-iyundagi VII-10-82-11-0-K/25-sonli qaroriga o‘zgartish kiritish to‘grisida

Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024 yil 20 maydagi 294-sonli qarori bilan, O‘zbekiston mahallalari uyushmasiga Kadastr agentligi bilan birgalikda respublikadagi barcha mahallalarni xatlovdan o‘tkazish, ularning aniq chegaralarini belgilash, bunda har bir mahallaning chegarasi bir aholi punkti (shahar, shaharcha, qishloq va ovul) doirasida bo‘lishini ta’minlash, shuningdek, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda mavjud mahallalar faoliyati tashkiliy va moliyaviy jihatdan to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilganligi, boshqaruv jihatidan o‘zini oqlashi yuzasidan o‘rganishlarni olib borsin hamda ushbu talablarga javob bermaydigan mahallalarni birlashtirish va ixchamlashtirish choralarini ko‘rish tavsiya etilgan.

Shunga ko‘ra, O‘zbekiston mahallalari uyushmasi viloyat boshqarmasi va uning tuman (shahar) bo‘limlari, viloyatdagi manfaatdor va hamkor boshqarma va tashkilotlar hamda tuman (shahar) hokimliklari tomonidan faoliyati tashkiliy va moliyaviy jihatdan to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilmagan va boshqaruv jihatidan o‘zini oqlamayotgan 50 ta mahallalarni **bo‘lish va birlashtirish orqali ularni optimallashtirish** yuzasidan berilgan takliflari dastlab viloyat ishchi guruhi tomonidan ko‘rib chiqilib, berilgan takliflar to‘liq ma’qullangan.

Xususan, Qo‘qon shahrida **10 ta,** Marg‘ilon shahrida **6 ta,** Beshariq va So‘x tumanilarda **5 tadan,** Bog‘dod, Oltiariq va Rishton tumanlarida **3 tadan,** Buvayda, Dang‘ara, Quva, Qo‘shtepa, O‘zbekiston va Farg‘ona tumanlarida **2 tadan**, Yozyovon, Uchko‘prik va Furqat tumanlarida **1 tadan** mahallalarni bo‘lish va birlashtirish orqali ularni optimallashtirish yuzasidan takliflar berilgan.

O‘z navbatida mazkur masala O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024 yil 20 maydagi 294-sonli qarori bilan tasdiqlangan ““Shaharlar,

shaharchalar, qishloqlar va ovullarning mahallalarini tuzish, birlashtirish, bo‘lish va tugatish, shuningdek ularning chegaralarini belgilash va o‘zgartirish, ularga nom berish va ularning nomini o‘zgartirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom talablaridan kelib chiqib, viloyat hokimligi huzuridagi “Mahallalarni tuzish, birlashtirish, bo‘lish va tugatish, shuningdek ularni chegarlarini belgilash va o‘zgartirish masalalarini ko‘rib chiquvchi” idoralararo doimiy komissiyasi (bundan keyin matnlarda - viloyat Idoralararo doimiy komissiyasi) tomonidan ko‘rib chiqilib, berilgan takliflar to‘liq ma’qullangan holda 2025 yil 19 maydagi 167/01-49 - sonli bayoni tasdiqlangan va Xalq deputatlari viloyat Kengashiga (bundan keyin matnlarda - viloyat Kengashi) kiritilgan.

Mazkur masala viloyat Kengashining X-sessiyasida O‘zbekiston mahallalari uyushmasi viloyat boshqarmasi va uning tuman (shahar) bo‘limlari, viloyatdagi manfaatdor va hamkor boshqarma va tashkilotlar hamda tuman (shahar) hokimliklari tomonidan berilgan takliflar, viloyat ishchi guruhining xulosasi hamda viloyat Idoralararo doimiy komissiyasining bayoni ko‘rib chiqilib, viloyat Kengashining 2025-yil 5-iyundagi VII-10-82-11-0-K/25-sonli qarori qabul qilingan va ijroga qaratilgan.

Lekin, So‘x tumani hokimligi 2025 yil 2 oktyabrdagi 391/01-sonli xat bilan viloyat Idoralararo doimiy komissiyasiga murojaat qilib, viloyat Kengashining 2025-yil 5-iyundagi VII-10-82-11-0-K/25-sonli qarori bilan birlashtirilishi belgilangan tumandagi **“Sebzor”, “So‘x” va “Zangat”** MFYlari aholisining e’tirozlari va bu boradafi ko‘plab murojaatlari, shuningdek hudud aholisi kayfiyati va ijtimoiy fikriga salbiy ta’sirini inobatga olib, ushbu mahalla fuqarolarini optimallashtirmaslik ya’ni, o‘z holicha qoldirilishida amaliy yordam berilishini so‘ragan.

Ma’lumot uchun: *So‘x tumani hokimligi 2025 yil 30 apreldagi 131/1-sonli xati (iltimosnomasi), viloyat ishchi guruhining xulosasi, viloyat Idoralararo doimiy komissiyasining bayoni hamda viloyat Kengashining 2025-yil 5-iyundagi VII-10-82-11-0-K/25-sonli qarorida So‘x tumanidagi “Sebzor MFYni - “Qaqir” MFY, “So‘x” MFYni - “Mulgon” MFY hamda “Zangat” MFYni – “Chumoqcha” MFY tarkibiga qo‘shib yuborish orqali optimallashtirish belgilangan.*

Mazkur masala viloyat ishchi guruhi tomonidan o‘rganib chiqilib, So‘x tumani hokimligi hamda O‘zbekiston mahallalari uyushmasi So‘x tumani bo‘linmasi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024 yil 20 maydagi 294-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Shaharlar, shaharchalar, qishloqlar va ovullarning mahallalarini tuzish, birlashtirish, bo‘lish va tugatish, shuningdek, ularning chegaralarini belgilash va o‘zgartirishda amalga oshiriladigan tadbirlar” sxemasi (talablari)ning **1-, 2- va 3-bosqichlari to‘liq va talab darajasida amalga oshirilmagan** deb topish, So‘x tumani hokimligining 2025 yil 2 oktyabrdagi 391/01-sonli xatini **to‘liq qanoatlantirish**, mazkur takliflar asoslantiruvchi materiallar bilan birgalikda viloyat Idoralararo komissiyasiga taqdim etish, shuningdek, viloyat Idoralararo komissiyasining bu boradagi xulosasini viloyat Kengashining navbatdagi sessiyasida ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq deb topilgan.

Viloyat Idoralararo doimiy komissiyasi tomonidan ushbu masala o‘rganib chiqilib, takliflar ma’qullangan holda komissiyaning 2025 yil 7 oktyabrdagi 345/01-49 - sonli bayoni rasmiylashtirilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024 yil 20 maydagi 294-sonli qarori bilan tasdiqlangan ““Shaharlar, shaharchalar, qishloqlar va ovullarning mahallalarini tuzish, birlashtirish, bo‘lish va tugatish, shuningdek ularning chegaralarini belgilash va o‘zgartirish, ularga nom berish va ularning nomini o‘zgartirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom (bundan keyingi matnlarda - Nizom)da Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari tomonidan navbatdagi sessiyada Idoralararo komissiya tomonidan taqdim etilgan hujjatlarni ko‘rib chiqishi va mahallalarni tuzish, birlashtirish, bo‘lish va tugatish, shuningdek, ularning chegaralarini belgilash va o‘zgartirish yoki ushbu taklifni rad etish to‘g‘risida qaror qabul qilishi belgilangan.

Viloyatda mahallalarni qo‘llab-quvvatlashni yanada takomillashtirish, faoliyatini tashkiliy va moliyaviy jihatdan to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish, ularda samarali boshqaruv tizimini shakllantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 24-moddalariga asosan viloyat Kengashi

QAROR QILADI:

1. So‘x tumani hokimligining 2025 yil 2 oktyabrdagi 391/01-sonli xati (iltimosnomasi), bu bo‘yicha viloyat ishchi guruhining xulosasi hamda viloyat Idoralararo doimiy komissiyasining 2025 yil 7 oktyabrdagi 345/01-49 - sonli bayoni (xulosasi) inobatga olinsin.

2. Farg‘ona viloyatidagi mahallalarni optimallashtirish (birlashtirish) yuzasidan tahliliy jadval ilovaga muvofiq qayta tasdiqlansin.

3. Shu munosabat bilan, viloyat Kengashining 2025-yil 5-iyundagi VII-10-82-11-0-K/25-sonli qarorining ilovasi mazkur qarorning ilovasiga muvofiq yangi tahrirda bayon etilsin.

4. Viloyat Kengashi kotibiyati mudiri Sh.Karimov viloyat Kengashining 2025-yil 5-iyundagi VII-10-82-11-0-K/25-sonli qarorini mazkur qarorga muvofiqlashtirsin.

5. So‘x tumani hokimligi hamda O‘zbekiston mahallalari uyushmasi So‘x tumani bo‘linmasi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024 yil 20 maydagi 294-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Shaharlar, shaharchalar, qishloqlar va ovullarning mahallalarini tuzish, birlashtirish, bo‘lish va tugatish, shuningdek, ularning chegaralarini belgilash va o‘zgartirishda amalga

oshiriladigan tadbirlar” sxemasi (talablari)ning **1-, 2- va 3-bosqichlari to‘liq va talab darajasida amalga oshirilmaganligi** alohida ko‘rsatib o‘tilsin.

6. Mazkur qaror viloyat Idoralararo doimiy komissiyasi hamda So‘x tumani hokimligiga yuborilsin.

7. Ushbu Qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi X.Komilov

Xalq deputatlari Farg‘ona viloyati Kengashining
2025-yil 29-oktabrdagi
VII-14-158-11-0-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Ilova

Farg‘ona viloyatidagi mahallalarni optimallashtirish (birlashtirish) yuzasidan
TAHLILIY JADVAL

№	Birlashtiriladigan mahalla nomi	Hudu-di (ga)	Aholi soni	Xonadon soni	Shundan qo‘shni mahallaga birlashtiriladigan ko‘rsatkichlari			Qo‘shni mahallaning mavjud ko‘rsatkichlari				Qo‘shilish natijasi ko‘rsatkichlari		
					Hududi (ga)	Aholi soni	Xonadon soni	Mahalla nomi	Hududi (ga)	Aholi soni	Xonadon soni	Hududi (ga)	Aholi soni	Xonadon soni
Qo‘qon shahar														
1	Istiqlol	33,1 ga	4525	887	16,0	3172	443	Shaldiramoq	24,9	3598	1347	40,9	6770	1790
					17,1	1343	444	Kalvak	42,2	4746	926	59,3	6089	1370
2	Buloqboshi	46,3	4756	1223	46,3	4756	1223	At-Termiziy	61,4	3700	650	107,7	8456	1873
3	Qipchoqariq	28,9	3350	603	16,9	1675	300	Sadoqat	32,1	1902	301	49	3577	601
					12	1675	301	Vaqf chorsu	29,7	2998	588	41,7	4 673	889
4	Usta bozor	58,7	2584	594	26	1292	297	To‘g‘onboshi	45,5	4289	889	71,5	5581	1186
					32,7	1292	297	G‘oziyog‘liq	78,5	5100	750	111,2	6392	1047
5	Navbaxor	34,6	3219	346	34,6	3219	346	Saodat	117,8	3944	744	152,4	7163	1090
6	Bunyodkor	27,8	2357	404	27,9	2357	404	Sobir Abdulla	47,6	4756	588	75,5	7113	992

№	Birlashtiriladigan mahalla nomi	Hudu-di (ga)	Aholi soni	Xonadon soni	Shundan qoʻshni mahallaga birlashtiriladigan koʻrsatkichlari			Qoʻshni mahallaning mavjud koʻrsatkichlari				Qoʻshilish natijasi koʻrsatkichlari		
					Hududi (ga)	Aholi soni	Xonadon soni	Mahalla nomi	Hududi (ga)	Aholi soni	Xonadon soni	Hududi (ga)	Aholi soni	Xonadon soni
7	Obod	60	2646	622	60	2646	622	Gʻishtlimasjid	65,1	4464	952	125,1	7113	1574
8	Amir Temur	25,7	1107	300	25,7	1107	300	Shikorbegi	80,3	4610	1150	106	5717	1450
9	Ziyolilar	113	3896	798	113	3896	798	Moʻyimu-borak	154	3248	753	267	7144	1551
10	Temir yoʻlchi	53,2	3745	723	53,2	3745	723	Chorchinor	61,5	3855	661	114,7	7600	1384
Margʻilon shahar														
11	Baynalminal	22,7	2606	402	22,7	2606	402	Baxrin	55,28	3631	520	77,98	6237	922
12	Iqbol	20,38	2449	360	20,38	2449	360	Goʻriavval	33,86	3145	575	54,24	5594	935
13	Sholdirama	32,05	3729	477	32,05	3729	477	Uvaysiy	20,77	2341	315	52,82	6070	792
14	Uzumzor	49,74	5139	476	49,74	5139	476	Z.M.Bobur	72	4807	712	121,74	9946	1188
15	Uzun xovuz	19,96	2425	397	19,96	2425	397	Oʻrda tagi	19,97	2222	405	39,93	4647	802
16	Yangi hayot	86,67	4485	796	86,67	4485	796	Vatan	12,97	3283	794	99,64	7768	1590
Beshariq tumani														
17	"Boy"	43.3	2047	392	43,3	2047	392	"Fayzobod"	120,54	5129	941	163,84	7176	1333
18	"Beshariq"	590,85	2342	427	590,85	2342	427	"Dexqontoʻda"	1093,63	6654	1186	1684,48	8996	1613
19	"Chorbogʻ"	221,3	2437	552	221,3	2437	552	"Obod"	293,78	5880	1153	515,08	8317	1705
20	"Adolat"	378,2	2825	525	378,2	2825	525	"Uzun"	598,6	5210	923	976,8	8035	1448
21	"Nabi"	956,93	3823	581	956,93	3823	581	"Namuna"	1720,69	7399	1255	2677,62	11222	1836
Bogʻdod tumani														

№	Birlashtiriladigan mahalla nomi	Hudu-di (ga)	Aholi soni	Xonadon soni	Shundan qoʻshni mahallaga birlashtiriladigan koʻrsatkichlari			Qoʻshni mahallaning mavjud koʻrsatkichlari				Qoʻshilish natijasi koʻrsatkichlari		
					Hududi (ga)	Aholi soni	Xonadon soni	Mahalla nomi	Hududi (ga)	Aholi soni	Xonadon soni	Hududi (ga)	Aholi soni	Xonadon soni
22	Paxtaobod	73,4	3369	550	73,4	3369	550	Choʻrindi	151	3750	604	224,4	7119	1154
23	Saxovat	120,1	3032	550	120,1	3032	550	Koʻshchinor	142,6	3112	580	262,7	6144	1130
								Mexnatobod	146,1	4045	775	107,7	4045	1873
24	Mirishkor	50,2	3529	719	50,2	3529	719	Xoʻjaqishloq	143,1	2860	557	193,3	6389	1276
Buvayda tumani														
25	Jilva	296,5	2938	528	296,5	2938	528	Xakimtoʻra	257,7	3258	601	554,2	6196	1129
26	Xonabod	301,6	3225	574	301,7	3225	574	Qoʻrgʻonobod	259,1	2125	370	560,8	5350	944
Dangʻara tumani														
27	Qora koʻrpa	70,5	3732	693	41,2	2389	441	Teliming	80,00	4110	732	121,2	6499	1173
					29,3	1343	252	Chinobod	81,90	2603	542	111,2	3946	794
28	Tangriqul	36,7	2242	503	36,7	2242	503	Naymancha	154,00	4115	1020	190,7	6357	1523
Yozyovon tumani														
29	Tegirmon-boshi	40,5	2620	344	40,5	2620	344	Yozyovon	63	2802	718	103,5	5422	1062
Quva tumani														
30	Gumxona	59,2	2179	387	59,2	2179	387	"Soyguzar"	122,4	4455	771 ta	181,6	6634	1158
31	Doʻstlik	47,3	2643	424	47,3	2643	424	"Xonobod"	121,5	6063	1034 ta	168,8	8706	1458
Qoʻshtepa tumani														
32	Mumtoz	68,5	2840	509	68,5	2840	509	Istiqlol	564,2	3988	635	632,7	6828	1 144
33	Boʻston	90,1	3206	614	90,1	3206	614	Vatan	175,0	2883	518	265,1	6089	1 132

№	Birlashtiriladigan mahalla nomi	Hudu-di (ga)	Aholi soni	Xonadon soni	Shundan qoʻshni mahallaga birlashtiriladigan koʻrsatkichlari			Qoʻshni mahallaning mavjud koʻrsatkichlari				Qoʻshilish natijasi koʻrsatkichlari		
					Hududi (ga)	Aholi soni	Xonadon soni	Mahalla nomi	Hududi (ga)	Aholi soni	Xonadon soni	Hududi (ga)	Aholi soni	Xonadon soni
Oltiariq tumani														
34	Oʻzbekiston	29	1680	267	29	1680	267	Yangi-xayot	51,7	3236	758	80,7	4916	1025
35	Guliston	31,9	1630	456	31,9	1630	456	X.Olimjon	46,2	2630	550	78,1	4260	1006
36	Oltiariq	15,7	1897	411	15,7	1897	411	Bugʻdoychi	42,8	1610	256	58,5	3507	667
Rishton tumani														
37	Gumbaz	119,9	1122	238	119,9	1122	238	Chinnigaron	48,6	2550	511	168,5	3672	749
38	Dorul-omon	12	1753	233	12	1753	233	Navoiy	163,4	1815	420	175,4	3568	653
39	Farovonlik	49,5	1423	318	49,5	1423	318	Anxor boʻyi	48	3050	550	97,5	4473	868
Soʻx tumani														
40	Istiqlol	39,9	2850	512	39,9	2850	512	Rovon	40,8	1852	303	80,7	4702	815
41	Soxibkor	34,52	2455	425	34,52	2455	425	Tul	44,2	2853	505	78,72	5308	930
Uchkoʻprik tumani														
42	Anxor boʻyi	34,5	2145	480	34,5	2145	480	Yakkamulla	65	3354	721	99,5	5499	1201
Oʻzbekiston tumani														
43	Naymansoy	37,45	2127	507	19	1128	255	Katta qaynar	35,5	2210	508	54,5	3338	763
					18,45	999	225	Avgʻon	60	3010	587	78,45	4009	812
44	Olmazor	53,5	2670	516	53,5	2670	516	Qirqketmon	55	2552	506	108,5	5222	1022
Fargʻona tumani														
45	Qora yantoq	57,5	2075	511	57,5	2075	511	Obod	58,7	2305	526	116,2	4380	1037
46	Yangiobod	92,4	3626	684	92,4	3626	684	Oqbilol	72	3456	650	164,4	7082	1334
Furqat tumani														

№	Birlashtirila digan mahalla nomi	Hudu-di (ga)	Aholi soni	Xonadon soni	Shundan qoʻshni mahallaga birlashtiriladigan koʻrsatkichlari			Qoʻshni mahallaning mavjud koʻrsatkichlari				Qoʻshilish natijasi koʻrsatkichlari		
					Hududi (ga)	Aholi soni	Xonadon soni	Mahalla nomi	Hududi (ga)	Aholi soni	Xonadon soni	Hududi (ga)	Aholi soni	Xonadon soni
47	Mustaqillik	92,7	2626	525	92,7	2626	525	Navbaxor	22	2340	515	114,7	4966	1040